



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGINING
YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI**

2023-yil 03 - iyul

91/09-3-qr -sonli

Toshkent shahri

**“Yo‘lqurilish” aksiyadorlik jamiyatining
2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi, “Yo‘lqurilish” AJ kuzatuv kengashi majlisining 2023-yil 5-apreldagi 01-son qarori hamda “Yo‘lqurilish” AJning 2023-yil 16-iyundagi 01-06/123-son murojaatiga asosan Davaktiv agentligi **qaror qiladi**:

1. Quyidagilar:

“Yo‘lqurilish” AJning (*keyingi o‘rinlarda – jamiyat*) 2022-yil yakuni buyicha:

- **jami daromad** 6 324,1 mln so‘m, 2021-yil yakuniga (3 922,5 mln so‘m) nisbatan 2 401,6 mln so‘mga ko‘payib, belgilangan (8 421,0 mln so‘m) reja 75,0 foizga bajarilganligi;

- **davr xarajatlari** 6 171,4 mln so‘m, 2021-yil yakuniga (3 065,8 mln so‘m) nisbatan 3 105,6 mln so‘mga ko‘payib, belgilangan (7 407,9 mln so‘m) reja 83,0 foizni tashkil etganligi;

- **sof foyda** 152,7 mln so‘mni tashkil etgan, 2021-yil yakuniga (696,5 mln so‘m) nisbatan 543,8 mln so‘mga kamayib, belgilangan (861,1 mln so‘m) reja 18,0 foizga bajarilganligi;

- **debitorlik qarzarlar** 5 555,5 mln so‘mni tashkil etib, hisobot yili boshiga (4 028,8 mln so‘m) nisbatan 1 526,8 mln so‘mga yoki 137,9 foizga ko‘payganligi;

- **kreditorlik qarzarlar** 755,4 mln so‘mni tashkil etib, hisobot yili boshiga (660,9 mln so‘m) nisbatan 94,5 mln so‘mga yoki 114,3 foizga ko‘payganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1013-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o‘tkazish Reglamenti”ga asosan jamiyatning moliyaviy holati past rentabelli ekanligi;

jamiyatning 2022-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlari haqqoniyligi yuzasidan "Smart Audit" MChJ auditorlik tashkilotining ijobiy xulosasi olinganligi;

"Investment Management Group" MChJ tomonidan jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi 630 ball (yuqori)ga baholanganligi;

"Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi, "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoni hamda 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 166-son qarori talablaridan kelib chiqib, jamiyatning ustaviga va ichki me'yoriy hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlar loyihalari ishlab chiqilganligi;

jamiyatning 2022-yil moliya-xo'jalik faoliyati kuzatuv kengashining 2023-yil 5-apreldagi majlisida ko'rib chiqilganligi va ma'qullanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamiyatning 2022-yil moliya-xo'jalik faoliyati yakuni, jumladan biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi holati to'g'risidagi jamiyat Boshqaruv raisi (R. Erniyazov) hisoboti tasdiqlansin.

3. Jamiyatning 2022-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlarini auditorlik tekshiruv natijasi yuzasidan "Smart Audit" MChJning xulosasini inobatga olib, Jamiyatning buxgalteriya balansi, foyda va zararlari hisob varag'i tasdiqlansin.

4. Jamiyatning 2022-yil yakunlari bo'yicha olingan 152 684 000 so'm sof foydasi quyidagicha taqsimlansin:

- 50 foiz (76 342 000 so'm) jamiyat aksiyadorlariga dividend to'lash uchun;

- 5 foiz (7 634 200 so'm) jamiyat zahira fondiga;

- 10 foiz (15 268 400 so'm) jamiyatning innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga;

- 35 foiz (53 439 400 so'm) keyinchalik jamiyat ustav kapitaliga kapitalizatsiya qilish sharti bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirish maqsadida jamiyat ixtiyorida qoldirish.


5. Jamiyatning 2022-yil uchun mo'ljallangan Biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashining 2022-yil 1-dekabrdagi yig'ilishida ma'qullanganligini inobatga olib, 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Jamiyatning yangi tahrirda ishlab chiqilgan ustavi va ichki nizomlari jamiyat kuzatuv kengashining 2023-yil 25-maydagi hamda 2023-yil 23-iyundagi majlislarida ma'qullanganligini inobatga olib, jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi 2-ilovaga, "Kuzatuv kengashi to'g'risida" va "Ijroiya organi to'g'risida" nizomlari 3-4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

7. Jamiyatning affillangan shaxslari bilan 2022-yilda tuzilgan bitimlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar 6-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davaktiv agentligi direktori o'rinbosari A. Miraliyev zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov